



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**11.00.01 – TABIIY GEOGRAFIYA IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH
DOKTORANTURAGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK
FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand – 2026

Annotatsiya:

Dastur 11.00.01 – Tabiiy geografiya ixtisosligiga kiruvchilar uchun 70530201 – Geografiya mutaxassisligining 2024-yilda tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzildi.

Tuzuvchilar:

Eshquvvatov B.B.

SamDU, Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasi mudiri, g.f.f.d., dots.

Sabirova N.T.

SamDU, Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasi dotsenti, g.f.f.d., dots.

Dastur Geografiya va ekologiya fakultetining 2026-yil 3-sentabrdagi 1-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

11.00.01 – Tabiiy geografiya ixtisosligi: tabiiy geografiyaning umumiy qonuniyatlari va xususiyatlari, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiiy geografik jarayonlarni modellashtirish va prognozlashtirishni amalga oshirish, landshaft va uning morfologik tuzilishi, taksonomik birliklarini ajratishni bilishlari lozim bo‘ladi. Buning uchun shu sohaga tegishli fanlarni, jumladan yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni chuqur o‘zlashtirgan, landshaftlarning geokimyoviy xususiyatlarini aniqlash, landshaft-geokimyoviy jarayonlarni, arid zona elementlarining migratsiyasini o‘rganish, tabiiy geografik jarayonlarni modellashtirish va prognozlashtirish, landshaftlar geografik tahlili va tabiiy geografik xaritalarni tuzishni biladigan, geografik axborot tizimlarini amalda qo‘llay oladigan, landshaftlarni rejalashtirish, ulardan foydalanish va baholash ishlarini amalga oshiradigan, global va mintaqaviy muammolarni darajasi va ularga qarshi samarali kurash choralarini aniq biladigan va ularni o‘z vaqtida qo‘llashni tashkil qila oladigan malakali mutaxassislar tayyorlash ta’lim tizimining negizi hisoblanadi.

Tayanch doktoranturga kiruvchilar uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, tabiiy geografik, geofizik va geokimyoviy jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarash shakllangan bo‘lishi lozim. Shuningdek, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarni oshirish va ko‘nikmalari mavjud bo‘lishi kerak.

11.00.01 – Tabiiy geografiya ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kiruvchi da’vogarlar uchun 70530402 – Geografiya (o‘rganish obyekti bo‘yicha) magistratura mutaxassisligi o‘quv rejasiga asosan 5 ta mutaxassislik fanlari bo‘yicha: “Geotizimlar haqida ta’limot”, “Amaliy landshaftshunoslik”, “Landshaft planirovkasi”, “Global va regional geoekologik muammolar”, “Geografik prognozlashtirish” fanlaridan savollar bazasi shakllantirilgan.

Bu fanlar o‘z negizida qamrab olingan ma’lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

GEOTIZIMLAR HAQIDA TA’LIMOT

fani bo‘yicha:

Geografik tizimlar haqidagi ta’limotning maqsadi va vazifalari, ta’limotning yuzaga kelishi. Geotizimlar haqidagi ta’limotning mantiqiy asoslari. Geotizimlar va ularning ko‘lamlari. Geotizimlarda modda almashinishi. Geotizimlarning mezonlari. Geografik tizimlar va ekologik tizimlar, o‘zaro nisbatlari, farqlari va o‘xshashliklari. Geografik tizimlar haqidagi ta’limot bilan ekologiyaning o‘zaro aloqadorliklari. Geografik tizimlarni tasniflash prinsiplari. Tasniflashning umumiy qoidalari. Biogeotsenozlar va fatsiyalar. Geom va geomer tushunchalari. Geoxora

tushunchasi. Geoxoralarining tasnifiy birliklari. Geotizimlar evolyusiyasi va dinamikasi. Geotizimlarning holatlari. Geotizimlarning o'zini-o'zi sozlab turishi, qismlararo aloqadorliklari. Biotik komponentlarning maromlashtiruvchi faoliyati. Epifatsiya va epigeom tushunchalari. Geotizimlarning yoshi, invariant tushunchalari va ularni o'rganishning ahamiyati. Ta'limotning topologik ko'lamdagi geotizimlarni o'rganadigan qismi va uning vazifalari. Geotopologiya va uni boshqa fanlar bilan aloqalari. Geotopologiya obyekti. Topologik ko'lamdagi geoxoralarini tahlil qilish. Topogeoxoralar va ularning tasnifi. Regional ko'lamdagi geotizimlarni tadqiq qilish masalalari. Regional geotizim tushunchasi. Geotizimlarning katta-kichikligi. Regional tabiiy geografik tahlil va taksonomiya masalasi. Tabiiy geografik komplekslarning ayrim o'lchamlari. Geotizimlar o'lchamlarining taksonomik birliklari. Planetar ko'lamdagi geotizim. Geotizimlarni landshaft xaritalarida aks ettirish masalalari. Geotizimlarni xaritaga tushirishning umumiy masalalari. Landshaft xartasining legendasini tuzish. Geomerlarning areallari haqidagi tushunchalar. Geoxoralarini xaritaga tushirish. Geografik prognoz masalasi. Geotizimlardan to'plangan axborotlarning amaliy geografiyadagi ahamiyati. Geotizimlar nazariyasi va iqtisodiy geografiya.

AMALIY LANDSHAFTSHUNOSLIK

fani bo'yicha:

Amaliy landshaftshunoslik faning o'rganish ob'ekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Geografiya fanlari tizimida tutgan o'rni. Amaliy landshaftshunoslikning ilmiy va amaliy ahamiyati. Amaliy landshaftshunoslikning nazariy asoslari. Umumilmiy landshaftshunoslik va amaliy landshaftshunoslik. Umumilmiy landshaftshunoslik va amaliy landshaftshunoslik g'oya va tushunchalarining shakllanishi va rivojlanishi. Geotizimlarda modda almashinishi. Geografik tizimlar va ekologik tizimlar ularning o'zaro nisbatlari, farqlari va o'xshashliklari. Geotizimlarni tasniflash prinsiplari. Geotizimlar evolyutsiyasi va dinamikasi. Landshaftlarni xalq xo'jaligining turli tarmoqlari nuqtai nazaridan baholash. Baholashning asosiy prinsiplari va metodlari. Landshaftlarni baholashga oid tadqiqotlar tavsifi. Geotizimlarni baholash. Landshaftlarni ekologik baholash. Landshaftlarni iqtisodiy baholash. Tabiiy sharoitni qishloq xo'jaligi uchun baholashda landshaft xususiyatlarini inobatga olish. Landshaftlarni rekreatsiya, shaharsozlik maqsadlarida baholash. Landshaftlarni prognozlash. Tabiiy geografik, iqtisodiy geografik va kompleks geografik prognozlar. Landshaftlar taraqqiyotini prognozlash uning asosiy tamoyillari. Prognozlash metodlari: ekspert-baholash, landshaft genetik qatorlari, funksional bog'liqliklar metodi, tabiiy geografik ekstrapolyasiya metodi. Landshaftlarning rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash muammolari. Landshaftlarning tabiiy rivojlanishini hamda antropogen ta'sir

natijasida o'zgarishlarini o'rganishning prinsiplari va metodlari. Amaliy landshafshunoslik maxsus kartalarini tuzish, mayda masshtabli, o'rta masshtabli va yirik masshtabli landshaft kartalarini tuzishning asosiy xususiyatlari va metodlari.

LANDSHAFT PLANIROVKASI

fani bo'yicha:

Landshaft planirovkasi fanining o'rganish predmeti. maqsadi va vazifalari. Landshaft planirovkasi nazariy asoslari. Madaniy landshaft – hududni ekologik tashkil etishning maqsadi va vositasi sifatida. Landshaftlarni hududiy rejalashtirishda landshaft modeli: asosiy xususiyatlar. Hududni o'zlashtirish va madaniy landshaft tuzilmasining shakllanishi. Landshaftni rejalashtirishning metodologik asoslari. Landshaftni rejalashtirish – hududni ekologik tashkil etish vositasi sifatida. Landshaftlarni rejalashtirishni amalga oshirilayotgan yondashuvlardagi kamchiliklar. Landshaft rejalashtirishni tashkil etishning ekologik jihatlari. Landshaftlarni rejalashtirishda xalqaro tajriba: tajriba, saboqlar va milliy o'ziga xoslik. Landshaftni rejalashtirishning xalqaro darajasi. Landshaftni rejalashtirish tizimida ekologik karkas: tushuncha, tuzilma va vazifalar.

Landshaft planirovkasi va uning xalq xo'jaligining turli tarmoqlari nuqtai nazaridan baholash. Landshaftni baholashning mazmun mohiyati. Landshaftni baholashning asosiy prinsiplari va metodlari. Landshaftlarni xo'jalikning turli maqsadlarida baholashning asosiy xususiyatlari va muammolari. Landshaftlarni baholashga oid tadqiqotlar tavsifi. Landshaftlarni ekologik baholash. Landshaftlarni iqtisodiy baholash. Landshaftlarni rekreatsiya maqsadlarida baholash. Tabiiy sharoitni qishloq xo'jaligi uchun baholashda landshaft xususiyatlarini inobatga olish.

Landshaft planirovkasida prognozlash. Ekologik karkasni rejalashtirishning geografik tamoyillari. Landshaftni rejalashtirishda yerdan foydalanish tartibi. Tabiiy resurslardan foydalanishdagi asosiy muammolarni aniqlash maqsadida hududni ekologik-xo'jalik baholash. Landshaft rejalashtirishda hududning bioxilma-xilligini baholash. Mintaqaviy turistik-rekreasion tizimlarni rivojlantirish maqsadida landshaftni rejalashtirish tartibining mazmuni. Rekreasion jihatdan jozibali hududlar uchun landshaftni rejalashtirish. Mintaqaviy turistik-rekreasion tizimlarning funksional va rejalashtiruvchi elementlari. Turistik-rekreasion tizim areallarining ixtisoslashuvi va tuzilmasini aniqlash. Yerdan foydalanish manzarasining turizm va rekreasiyani rivojlantirish maqsadlariga mosligini baholash. Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning huquqiy shakllarini mintaqalashtirish. Landshaftni rejalashtirish jarayonida tabiiy va madaniy merosni uyg'unlashtirish muammosi. Madaniy landshaft – rejalashtirish

obyekti sifatida. Qishloq xo‘jalik ekinlarini shamoldan himoyalovchi o‘rmon larni barpo etish. Landshaftni rejalashtirishning estetik jihatlari. Madaniy landshaft – milliy manzara sifatida.

Landshaft planirovkasi loyihalashtirish haqida tushuncha. Shaharsozlik va shaharlarni loyihalashtirish. Shahar inshootlarni loyihalashtirish. Shahar hududini hududiy rejalashtirish. Urbanizasiyalashgan hududlarni ekologik landshaft rejalashtirish. Shahar landshaftlarini baholash va yashillashtirish tizimini loyihalash bo‘yicha umumiy yondashuvlar. Shaharning tabiiy majmuasi ob'ektlarini landshaft tahlili. Landshaftni rejalashtirishda shahar tabiiy majmuasi ob'ektlarining kelib chiqishini tadqiq etish. Urboekotizimlar transformasiyasi. Shaharning mavjud yashillashtirish tizimini zamonaviy landshaft rejalashtirish nuqtai nazaridan baholash. Yashil shahar atrofi halqasi. Shahardagi alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar. Landshaftni rejalashtirishning amaliy jihatlari: muhandislik-ekologik tadqiqotlar va suv muhofaza zonalarini loyihalash. Shahar landshaftini rejalashtirish uchun hududning geomorfologik xususiyatini hisobga olish. Daryolar va suv omborlari akvatoriyalarining suv muhofaza zonalarini landshaft asosida rejalashtirish. Suv muhofaza zonalarini loyihalashda landshaft yondashuvi. Landshaft arxitekturasini ob'ektlarini rejalashtirish va loyihalash. Landshaft arxitekturasini ob'ektlarini rejalashtirish ishlarining tarkibi va mazmuni. Landshaftni rejalashtirishda ekologik boshqaruv va monitoringni tashkil etish.

GLOBAL VA REGIONAL GEOEKOLOGIK MUAMMOLAR

fani bo‘yicha:

Geoekologik muammo tushunchasi. Geoekologik muammolarning tasniflanishi. Geoekologik muammolar ko‘lamlari. Landshaft ekologiyasi. O‘zbekistonda geoekologik tadqiqotlar. Geotizim va ekotizim tushunchalari. Landshaft ekologiyasining tadqiqot obyekti – landshaft va uning morfologik qismlari. Landshaft atrof muhitning bir qismi sifatida. Landshaftda modda va energiya migratsiyasi. Geoekologiyaning nazariy va metodologik asoslari. Geoekologik konsepsiyalar, prinsiplar, yondashuvlar. Geoekologik tadqiqotlarda dala-ekspeditsiya, kartografik, aerokosmik, GIS, modellashtirish metodlaridan foydalanish. Geoekologik omil haqida tushuncha. Tabiiy va antropogen omillar, ularning turlari. Geoekologik vaziyatni belgilovchi ko‘rsatkichlar, ularni son va sifat jihatidan umumlashtirish.

Landshaftlarning ekologik funksiyasi. Moddalarning texnogen migratsiyasi va landshaftlarning o‘zgarishi. Antropogen ifloslanish manbalari. Geoekologik muammolar yechimining ilmiy asoslari. Geoekologik baholash. Geoekologik vaziyatni baholash va tasniflash mezonlari. Landshaftlarni ekologik tahlil qilish va

baholash tushunchalari. Yer usti va yer osti suvlarini baholash. Havo va iqlimiy ko'rsatkichlarni baholash. Landshaftlarga antropogen ta'sirni baholash, ekologik-xo'jalik balansi, geoeologik baholash metodlari. Landshaftlardagi ekologik jarayonlarni modellashtirish. Landshaft ekologik modellashtirish mazmuni. Geoeologik kartalashtirish. Geoeologik kartalashtirish mazmuni, turlari va tasniflanishi. Geoeologik kartalarni tuzishning metodologik asoslari.

Tabiiy muhitning inson xo'jalik faoliyati ta'sirida ifloslanishi turlari. Tabiatni muhofaza qilish va o'zgartirish. Tabiiy muhitning inson xo'jalik faoliyati ta'sirida ifloslanishining global va regional ekologik oqibatlari. Tabiatdan foydalanishda, uni o'zgartirishda hisobga olinishi zarur bo'lgan qonuniyatlar. Tabiat qonuniyatlarining obyektiv qonunlar ekanligi, ularni o'rganish zarurligi. Global va regional ekologik vaziyati, ularni geoeologik tadqiqot qilish va baholash. Atrof-muhitni geoeologik tadqiq qilish va baholash. Geoeologik bashoratlashtirish va bashorat. geotizimlarn ekologik muvozanatlarini prognozlashtirish va prognozlarini ishlab chiqish ayni muddaodir.

Geoeologik monitoring. Tabiatdan foydalanishning geoeologik asoslari. Global va regional ekologik monitoring natijalari asosida kartalashtirish. Global va regional geoeologik muammolarni kelib chiqish sabablari. Landshaftlarda geoeologik o'zgarish sabablari. Landshaftlarda geoeologik o'zgarish oqibatlari.

Global va regional atmosferani ifloslantiruvchi manbalar. Atmosfera havosini ba'zi zararli moddalar bilan ifloslanishining REM. Suv manbalarining ifloslanishi. Orol dengizining Global va regional ekologik oqibatlari. Xo'jalik, ichimlik va madaniy maqsadlarda suvdan foydalanish. Xo'jalik-ichimlik va madaniy maqsadlarda suvdan foydalanish buyicha suv obyektlaridagi zararli moddalarning REM. Tuproq eroziyasi va uning oldini olish yo'llari. Global va regional ekologik tuproqni ifloslanishini oldini olish tadbirlari. Tog'-kon sanoati va ekologik holat. Elektroenergetikaning global va regional ekologik atrof-muxitga ta'sirining asosiy omillari. O'rmon resurslari va ularning inson hayotidagi roli. Atrof-muhitni muhofaza qilishning chora tadbirlari. Insonning tabiatga, uning komponentlariga va elementlariga bevosita hamda bilvosita ta'siri. Geoeologik muammolarning tarkib topishi va shakllanishi. Dunyo "issiq xonasi" va uning oqibatlari. Ozon tuynugi va uning oqibatlari. Cho'llashishning sayyoramiz buylab hujumi. Buzilgan yerlarda rekultivatsiya tadbirlari amalga oshirish. Atrof-muhit ifloslanishining inson sog'lig'iga ta'siri va uning oqibatlari. Atrof-muhit muhofazasida aholi ekologik ongining ahamiyati. Tabiatning va unda ro'y beradigan jarayonlarning regionallik qonuniyati. Insonning xo'jalik faoliyati ta'sirida tabiatda suv rejimining o'zgarishi va uning oqibatlari. Insonning xo'jalik faoliyati ta'sirida atmosfera havosining o'zgarishi. Inson xo'jalik faoliyatining

o'simlik va hayvonot olamiga ta'siri. Barqaror rivojlanish va atrof-muhit muhofazasi. Barqaror rivojlanish geoeologik indikatorlari.

GEOGRAFIK PROGNOZLASHTIRISH

fani bo'yicha:

Prognozlashtirish va prognoz. Prognozlashtirishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Geografik prognozlashtirishning shakllanishi. Geografik prognozlashtirishning metodlari. Prognozlashtirishning metodologik asoslari. Prognozlashtirishning asosiy operatsiya birliklari, geografik prognozlarni tasniflanishi. Prognozning sinflari. prognozning qidiruv va meyorli sinflar, rejalashtirish, prognozning rejalashtirilishi, prognozlashtirishning xatoliklari. Prognozlashtirishning umumilmiy usullari. prognozlashtirish usullarini tanlash va prognozli tizim yaratish. Tabiiy komponent, kompleks va jarayonlarning ba'zi prognozli-axborot xususiyatlari. Tabiiy komponent, kompleks va jarayonlarning ba'zi prognozli-axborot xususiyatlari. Tabiiy komplekslarning rivojlanish bosqichlari va o'z-o'zini tiklash qobiliyati. Tog' jinslari, relyef shakli, tiplari, suv, tuproq, o'simlik hamda meteorologik omillar prognozlashtirishda muhim tabiiy omili. Tabiiy komplekslarning imkoniy barqarorligi. Geotizimlarning tabiiy va antropogen ta'sirlarga bardosh berib, o'z tuzilishi hamda funksiyalarini saqlab qolish qobiliyatidir. U tabiiy komponentlarning o'zaro bog'liqligi va muvozanatiga bog'liq. Barqarorlikni baholash tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega. Global geografik prognozlashtirish va prognozlar. Iqlim o'zgarishlari, inson xo'jalik faolyati natijasida vujudga kelayotgan muammolar va ularning sabablari. Dunyo okeanning ifloslanishi, uni prognozlashtirish va prognozlari. Okean suvlarining turli chiqindilar va zararli moddalar bilan ifloslanishidir. Prognozlashtirish orqali ifloslanishning kelajakdagi holati baholanadi. Zarur choralar ko'rilmasa, okean ekotizimlariga salbiy ta'sir kuchayadi. Antropogen cho'llanish va uning rivojlanishi. Inson faoliyati natijasida yerlarning degradatsiyaga uchrab, cho'lga aylanish jarayonidir. Uning asosiy sabablari yerlardan noto'g'ri foydalanish, ortiqcha yaylov yuklamasi va o'rmonlarning qisqarishidir. Natijada tuproq unumdorligi pasayib, cho'l hududlari kengayib boradi. Hududiy prognozlashtirish va prognozlar. Hududiy tahlil, resurslar va imkoniyatlarni aniqlash, tabiiy va inson resurslarining mavjudligi va ularning foydalanish imkoniyatlari. Mahalliy geografik prognozlashtirish va prognozlar. Mahalliy geografik, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik sharoitlarni baholash. Mahalliy resurslar, jumladan, tuproq, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi resurslarining mavjudligini baholash. O'zbekistonda hududiy prognozlashtirish va prognozlar. Suv, tuproq, va boshqa tabiiy resurslarning holatini baholash va ulardan samarali foydalanish. O'zbekistonda mahalliy prognozlashtirish va

prognozlar. Suv, tuproq va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishning holati va prognozlari. Resurslar taqsimoti va ularni barqaror ravishda boshqarish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alibekov L.A. Inson va tabiat. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020 yil.
2. G'ulomov P.N. Inson va tabiat. O'quv qo'llanma. – T.: "O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2009.
3. Hugget R. Geoecology.: London and New York. Routledge. 1995.
4. Rafikov A.A., Sharipov Sh.M. Geoekologiya. – T.: "Adib", 2014.
5. Zokirov Sh. Antropogen va amaliy landshafshunoslik. – Toshkent, 1998.
6. Zokirov Sh. S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. – T.: "Dizaynpress", 2013.
7. Баратов П. Табиатни муҳофаза қилиш. – Тошкент, Ўқитувчи нашриёти, 1991.
8. Гвоздецкий Н.А. Основные проблемы физической географии. – М., Высшая школа. 1979.
9. Забелин И.М. Физическая география в современном естествознании. – М.: Просвещение, 1979.
10. Звонкова Т.В. Географическое прогнозирование. – М.: "Высшая школа", 1987.
11. Зокиров Ш.С. Кичик ҳудудлар табиий географияси. – Т.: Университет, 1999.
12. Исаченко А.Г. Ландшафтоведение и физико-географическое районирование. – М., 1991.
13. Колбовский Е.Ю. Ландшафтное планирование. Издательский центр «Академия». – Москва, 2008. – 336 с.
14. Мильков Ф.Н. Физическая география: современное состояние, закономерности, проблемы. – Воронеж, 1981.
15. Нигматов А., Р.Кулматов, А.Расулов, Ш.Мухамедов. Барқарор ривожланиш ва унинг тизимли индикаторлари. – Тошкент, 2015.
16. Николаев В.А. Ландшафты азиатских степей. – М., 1999.
17. Сочава В.Б. Введение в учение о геосистемах. – Новосибирск.: 1978.
18. Трофимов А.М., Шарыгин М.Д. Общая география: вопросы теории и методологии. – Пермь, 2007.
19. Турсунов Х.Т. Экология ва барқарор ривожланиш. – Т., 2009.
20. Хасанов И.А. Оценка природных территориальных комплексов Каршинской степи для оросительной мелиорации. – Т.: «Фан», 1981.
21. Юренков Г.И. Основные проблемы физической географии и ландшафтоведения. – М., 1982.

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETINING TAYANCH DOKTORANTURA
IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK
FANLARDAN TALABGORLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Eng yuqori ball	100